

“Qissasi Rabg‘Uziy” Da Payg‘Ambarlar Timsoli.

Murtozaqulova Sabrina

talaba,

sabrinamurtozaqulova927@gmail.com

Qarshi davlat universiteti

Ilmiy rahbar: G‘iyosiddin Shodmonov,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.


Qarshi davlat universiteti

shodmonov786@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Rabg‘uziy tomonidan yozilgan “Qissasi Rabg‘uziy” asari tarkibidagi payg‘ambarlar tarixlari oddiy diniy rivoyat emas, balki insoniyatni ruhiy kamolot va axloqiy yetuklik sari yetaklovchi timsollar sifatida talqin etilgan. Asarda har bir payg‘ambarning hayoti muayyan maqsad-g‘oyani aks ettirgan. U orqali muallif sinovga bardoshlilik, sabrning ilohiy kuchi va najot sari eltuvchi iymon g‘oyalarni ilgari surgani mazkur tadqiqotda atroflicha muhokamaga tortilgan. Ushbu maqola aynan ana shu uch g‘oya – sinov, sabr va najot talqiniga bag‘ishlangan. “Qissasi Rabg‘uziy”dagi payg‘ambarlar obrazlari shunchaki qahramonlar emas. Asarning falsafiy mohiyati shundaki, Rabg‘uziy har bir qissada insonlarni Yusufdek sabrli bo‘lishiga, sinovlardan Ayyubdek o‘tishga, najotni esa Yunus singari duo va sabot orqali topishga undaydi. Mazkur maqolada ana shu jihatlar – “Qissasi Rabg‘uziy”dagi payg‘ambarlar timsoli orqali berilgan sinov, sabr va najot g‘oyalari ramziy-falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi. Asarning xalqona tili, tasavvufiy ruhdagi talqini va muallifning ichki maqsadi asosida har bir qissa zamonaviy ruhiy tarbiya kontekstida tahlil qilinadi.

ANNOTATION: This article analyzes the stories of the prophets in the work "Qissasi Rabguziy", written by Rabguziy in the late 13th - early 14th centuries, not as a simple religious narrative, but as a system of symbols that guide the human psyche and moral maturity. Through the life of each prophet in the work, the author puts forward such basic ideas as endurance in trials, the divine power of patience, and faith leading to salvation. This article studies these three ideas - trial, patience, and salvation - as the main scientific basis. The article also analyzes the images of the prophets in "Qissasi Rabguziy" not as heroic characters, but as symbols of situations that every person faces in his or her trials in life. The philosophical essence of the work is that in each story, Rabguzi aimed to spiritually confront the reader with himself, saying: "You too can be Joseph; you can pass your trials like Ayyub; you can find salvation through prayer like Jonah."

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются истории пророков в произведении «Киссаси Рабгузий», написанном Рабгузием в конце XIII — начале XIV вв., не как простое религиозное повествование, а как система символов, направляющих психику человека и нравственную зрелость. Через жизнь каждого пророка в произведении автор выдвигает такие основные идеи, как стойкость в испытаниях, божественная сила терпения и вера, ведущая к спасению. В данной статье эти три идеи — испытание, терпение и спасение — изучаются как главная научная основа. В статье также анализируются образы пророков в «Киссаси Рабгузий» не как героические персонажи, а как символы ситуаций, с которыми сталкивается каждый человек в своих жизненных испытаниях. Философская суть произведения заключается в том, что в каждой истории Рабгузий стремился духовно сталкивать читателя с самим собой, говоря: «Ты тоже можешь быть Юсуфом; ты можешь пройти свои испытания, как Айюб; ты можешь обрести спасение через молитву, как Юнус».



Kalit soʻzlar: Qissasi Rabgʻuziy, sabr timsoli, Yusuf qissasi, Yunus va duo, ruhiy sinov, tasavvufiy tahlil, iymon va tavba.

***“Kim bu kitobni oʻqisa, Rabbini bilur, nafsini toʻgʻrilur, iymonini mustahkam qilur, sabr qilur, saboq olgʻay.”
Rabgʻuziy¹.***

Adabiyot inson ruhining ichki tarixidir. Bu tarix sahifalari koʻpincha voqealar bilan emas, ramzlar, saboqlar va sinovlar bilan yoziladi. Oʻrta asr turkiy adabiyotida yaratilgan “Qissasi Rabgʻuziy” asari ham aynan ana shunday ruhiy tarix bitigidir — unda paygʻambarlar haqida gap ketadi, ammo aslida ularning timsolida inson, uning nafsiy kurashi, sabr sinovi va najot sari intilishi tasvirlanadi. Rabgʻuziy oʻz asarini shunchaki tarixiy-diniy maʼlumotlar toʻplami sifatida emas, balki xalq uchun saboq, ogohlik, iymon manbai sifatida yaratdi. U aytadi: “Kim bu kitobni oʻqisa, Rabbini bilur, nafsini toʻgʻrilur”. Bu jumla orqali muallif oʻz asarining maqsadini ochiq ifodalaydi. Bu qissa kitobi emas, ruhiy tozalik maktabidir. Asarda Yusufning quduqqa tashlanishi — zulm emas, ichki uygʻonish boshlanishi; Ayyubning sabr sinovi — qiynoqlar emas, ruhiy sabr yuksakligi; Yunusning baliq ichida qilgan duosi — najot istovi emas, oʻzlikni tan olish ramzi sifatida talqin etiladi. Har bir voqea — inson hayotining bir bosqichi, har bir sinov esa komillik sari bosilgan qadam.

Maʼlumki, “Qissasi Rabgʻuziy”² — XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yashagan Rabgʻuziy nomi bilan tanilgan muallif tomonidan Nosiruddin Rabgʻuziy asarni deyarli bir yillik tinimsiz mehnatdan soʻng hijriy 710 yilning Hut (milodiy 1311 yil, 21 fevral-21 mart) oyida nihoyasiga yetkazadi. Asarning toʻliq nomi “Qisasi anbiyo” (yaʼni Paygʻambarlar qissasi) boʻlib, u xalq orasida “Qissasi Rabgʻuziy” nomi bilan mashhur boʻlgan. Muallif oʻz asarining muqaddimasida kitobni Nosiruddin Toʻqbugʻaning topshirigʻiga binoan, xalq uchun tushunarli turkiy tilda yozganini bayon etadi. U shunday deydi: ***“Men bu kitobni turkiy til birla yozdumki, xalq oʻqib tushunsin, har kim oʻz tilida ilm oʻrganmogʻi lozimdur.”***³

Asar voqealari Qurʼoni karim, hadis va islom tarixiga asoslangan boʻlsa-da, Rabgʻuziy uni xalqona ruh, milliy idrok va didga mos shaklda bayon qiladi. Ayniqsa, u xalq ogʻzaki ijodiga yaqin, soddaligi bilan ajralib turadigan badiiy-diniy uslubda yozilgan boʻlib, bu uslub uni oʻzbek adabiyoti tarixida noyob diniy-nasriy asar sifatida ajratib turadi. Adib Xorazmning Raboti oʻgʻuz degan joyida yashagan. Rabgʻuziy taxallusi mazkur joy nomidan kelib chiqqani olimlar tomonidan taʼkidlangan. Biroq “Qisasi Rabgʻuziy”da Muhammad as.ga paygʻambarlik kelgan davri haqidagi bir hikoyatda Abdulloh ibn ar-Rabgʻuziy nomi ham uchraydi. Bu uning taxallusi bilan bogʻliq masala ustida jiddiy tadqiqot olib borish lozimligini bildiradi. Deyarli barcha ilmiy va oʻquv adabiyotlarida “Qisasi Rabgʻuziy” 72 qissadan tarkib topgani taʼkidlanadi. Aslida asarda Qurʼoni Karim va Hadislarda zikr qilingan 25 paygʻambar tilga olinadi va ularning qissalari hikoya qilinadi. Bu qissalarda diniy aqidalar bilan birga axloqiy saboq, sabr, iymon, tavba, najot va komillik yoʻli haqida chuqur maʼnaviy-falsafiy gʻoyalarni ilgari suriladi. Asarning XV asrda koʻchirilgan nusxasi bilan yurtimizdagi №1834 inventar raqamli asar nusxasining muqaddima qismini matniy-qiyosiy tadqiq qilish jarayonida koʻplab farqli jihatlariga duch kelindi. XV asrga oid nusxasida Allohga hamdu sano aytish asnosida ***“Sonsiz hamdu sanolar, saqishsiz koʻb shukrlar ul tangrigʻakim jalla jalaluhu kiym qudrati birla bizni odam yaratdi va yilqi qora yaratmadi”***, deyiladi. Keyingi asrdagi nusxada esa ***“Sonsiz hamdu sanolar saqish ezgular***


¹ Qissasi Rabgʻuziy. — Noshir: A. Mahmudov, N. Komilov. — Toshkent: Fan, 1990.

² Rabgʻuziy. Qissasi Rabgʻuziy

Nashrga tayyorlovchilar: A. Mahmudov, N. Komilov.

Toshkent: Fan nashriyoti, 1990. — 327 bet.

³. (Qissasi Rabgʻuziy. — Fan, 1990)



azza va jallag ‘akim qudrati birla bizlarni odam yaratdi pari yaratmadi taqi qora yaratmadi’, deyiladi. Ikki nusxa orasidan o‘tgan bir asr davomida lafzlarning bir muncha o‘zgarishlarga yuz tutganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida aytib o‘tilganidek muallif hamd qismining o‘zida ne‘matlar shukronasi barobarida uch suraning: Isro surasi 70-oyati, Baqara surasi 228-oyati va An‘om surasining 153-oyatini ma‘naviy izchillikda keltirgan. Shu jumladan, avvalgi nusxada An‘om surasi 153-oyatining kichik bir qismi zikr qilingan:

وَأَنَّ هَذَا صِرَاطِي مُسْتَقِيمًا فَاتَّبِعُوهُ


“Albatta, bu Mening to‘g‘ri yo‘limdir. Bas, unga ergashing...”

Keyingi nusxada esa ushbu oyatning keyingi qismlari ham yozilgan:

وَأَنَّ هَذَا صِرَاطِي مُسْتَقِيمًا فَاتَّبِعُوهُ وَلَا تَتَّبِعُوا السُّبُلَ

“Albatta, bu Mening to‘g‘ri yo‘limdir. Bas, unga ergashing. Va boshqa yo‘llarga ergashmang...” Ammo ushbu nusxada oyatdagi صِرَاطِي lafzi صراط ko‘rinishida imloviy xato bilan yozilgan. Bundan asarni keyingi asrda ko‘chirgan kotib oyatlarni bir muncha batafsilroq yozishga intilganini tushunish mumkin. Na‘at qismida muallif oyatlardan shu qadar mohirona foydalanganki, bir vaqtning o‘zida Qur‘on va siyrat ilmidan hamda she‘riyatdan naqadar ulug‘ nasibador ekanini namoyon etgan. Na‘at qismida Rosululloh sollallohu alayhi va sallamni na‘atlari eski nusxaga ko‘ra 23 oyat bilan (ayrim o‘chib ketgan qismlarni hisobga olmaganda), keyingi asrda ko‘chirilgan nusxada esa 24 oyat bilan ifodalangan. Ushbu na‘atlarda keltirilgan oyatlar Qur‘oni Karimning turli suralaridagi turfa oyatlar bo‘lib qori bo‘lmagan va ulumul-Qur‘on va tafsir ilmini yaxshi bilmagan kishi bu oyatlarni iqtibos tarzida keltira olishi muhol. Jumladan muallif birgina na‘at qismida Tavba surasi 128-oyat, Oli Imron surasi 110-oyat, Tag‘obun surasi 3-oyat, Isro surasi 1-oyat, Moida surasi 67-oyat, Qalam surasi 4-oyat, Luqmon surasi 18-oyat, Baqara surasi 186-oyat, Duho surasi 10-oyat, Najm surasi 17-oyat, Najm surasi 9-oyat, Duho surasi 5-oyat, Tavba surasi 112-oyat, Isro surasi 79-oyat, Najm surasi 10-oyat, Muzzammil surasi 2-oyat, Tavba surasi 5-oyat, Quroysh surasi 1-oyat, Niso surasi 41-oyat, Isro surasi 79-oyat, Haj surasi 341-oyat, Baqara surasi 185-oyat, Qomar surasi 1-oyat, Ahzob surasi 45-oyatini mavzuga muvofiq o‘rinlarda mohirona qo‘llagan. Shuningdek ushbu qismda bitta duo va ikkita hadis ham zikr qilingan. Muhammad sollallohu alayhi va sallamga bag‘ishlab yozilgan she‘riy misralarning ham ayrim lafzlari ikki nusxada ikki xil keltirilganini ko‘rish mumkin. Masalan, ushbu nazmning beshinchi misrasida birinchi nusxada *Qavmi o‘rin ko‘tarmay ko‘kka chiqqon Iso ul* deyilgan bo‘lsa, keyingi nusxada *Qavmi o‘rin ko‘turmadin ko‘kka og‘gan Iso ul* ko‘rinishida juz‘iy farqlar bilan yozilgan. Va yana ushbu she‘rning o‘n uchinchi misrasi qadimiy nusxada *Inar erkan Mustafoni elindab eltgan Jibril* ko‘rinishidakey ingi asrda ko‘chirilgan nusxada esa *Inar ekan Mustafoni eltuchisin bitkuchi* shaklida yozilgan. Ikki nusxani solishtirish jarayonida keyingi satrlarda ham bir qancha juz‘iy farqlarga duch kelindi. Agar bu qiyoslash jarayoni asarni boshqa qo‘lyozmalari va tabdil qilingan nusxalari asosida olib borilsa mavzu yanada keng qamrovli va qiziqarli bo‘lishi shubhasiz. Bu o‘rinda E.E. Bertelsning fikri alohida ahamiyat kasb etadi: “O‘qilgan qo‘lyozmalar soni qancha ko‘p bo‘lsa, tuman shunchalik tarqalib, masala oydinlashib boradi. Tadqiqotchining qo‘lidan yuzlab, minglab qo‘lyozmalar o‘tsa, ilgari amalga oshirib bo‘lmaydigandek tuyulgan masala oddiylashadi va oydinlashadi”.⁴ Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, ushbu asar kitobxonlar tomonidan e‘zozlab o‘qiluvchi badiiy va ilmiy asar ekani jihatidan har bir davrda, har asrda o‘z atrofiga olimlar va tadqiqotchilar jamoasini jamlay olgan. Xususan, 2001-yil H.Safarova “Rabg‘uziyning “Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom” asari manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili” mavzusida, 2017-yil B.Abdushukurov “Qisasi Rabg‘uziy leksikasi”

⁴ Бертельс. Е.Э. Вопросы методики критических изданий классических памятников литературы народов Ближнего и Среднего Востока// Материалы Всесоюзной конференции востоковедов в Ташкенте. – Т.: Изд.АН.УзР, 1957- С.237-238.



mavzusida, 2019-yil Z.Shukurova “Qisasi Rabg‘uziyda folklor an‘analari” mavzusida, 2019-yil M.Qurbaniyazov “XIV asr o‘zbek adabiyotida hikoyat janri taraqqiyoti (“Qisasi Rabg‘uziy” misolida)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yoqlaganlar.

Biz maqolaning imkoniyatidan kelib chiqib, asardagi uch payg‘amabar va ular orqali ilgari surilgan 3 asosiy g‘oyaga to‘xalishni joiz topdik. Ya‘ni – **sinov, sabr va najot**.

Asarda Yusuf sinov ramzi sifatida talqin qilingan.

“Qissasi Rabg‘uziy” asarida Yusuf (a.s.) qissasining sinov timsoli *sifatida: Yusuf (a.s.) — go‘zallik, tuhmat va yolg‘izlik sinovining timsoli. “Qissasi Rabg‘uziy”da Yusuf (a.s.) qissasi eng chuqur sabr va sinov bilan boyitilgan* obrazlardan biridir. Bu qissa nafaqat Qur‘oni karimdagi bayonlarga, balki xalq tafakkuriga yaqin, nasriy va badiiy uslubda hikoya qilinadi. Rabg‘uziy Yusuf hayotini nafs, vasvasa, yolg‘izlik va nohaqlik sinovlari bilan boyitadi. Qissaning boshlanishi: Yusuf quduqqa tashlanishi – yakka sinovning boshlanishidir. Yusuf (a.s.) sinovi akalari tomonidan rashk sababli boshlanadi. Ular uni quduqqa tashlaydilar. Bu yerda Yusuf qarshilik ko‘rsatmaydi, balki sinovni sukut va sabr bilan qabul qiladi. **“Yusuf sabr ayladi, quduqqa sabr birla tushdi, uzra shikoyat aynamadi.”** Yusuf bu yerda tashlandimi — ha, lekin ich-ichida quvvat topdi. Bu — tashqi sinov bilan ichki kuchning qarama-qarshiligi hisoblanadi. U ilk sinovda norozilik qilmaydi, bu esa uning ruhiy bardoshining belgisi bo‘ladi. Shuningdek, Zulayho fitnasi – nafs va vasvasa sinovi hisoblanib, bunda: Zulayho Yusufni vasvasa qiladi. Bu sinovda Yusuf nafaqat iymonini, balki nafsini tiyish kuchini namoyon etadi. Rabg‘uziy bu joyda Yusufni "halollik va poklik yo‘lida qattiq qarorli inson" sifatida tasvirlaydi. **“Zulayho chorladi, Yusuf qarshi bordi, nafsga quloq solmadi, sabr va taqvo bilan chetga chiqdi.”** Yusuf bu sinovda go‘zallikning qurboni emas, halollikning timsoliga aylanadi. Rabg‘uziy uni nafsni yenggan Alloh do‘sti sifatida ko‘rsatadi. Yusufning qamalishi – tuhmat sinovi. Zulayho fitnasidan keyin Yusuf nohaq qamoqqa tashlanadi. Bu sinovda u g‘azabga berilmaydi. Asarda ta‘kidlanishicha, Yusuf bu dardni ham sabr bilan kutadi. **“Yusufni nohaq band ayladilar, ammo u Tangridan nolimadi.”** Bu yerda sinov eng og‘ir bosqichga kiradi — erkinlik yo‘q, haqiqatni isbotlay olmaydi, ammo umidini yo‘qotmaydi. Bu — nohaqlik qarshisida sabr timsolidir. Yusufning yuksalishi – sinovdan o‘tganlarga Tangri yordami. Yusuf qamoqdan chiqqach, podshoh oldida hikmatli so‘z aytadi va davlat ishlariga tayinlanadi. Biroq Rabg‘uziy bunga boylik yoki maqom emas, balki sabr bilan o‘tgan sinovning samarasidir, deya qaraydi. **“Yusuf sabr ayladi, sabr sababi ila podshoh bo‘ldi.”** Bu yerda sinov — maqsad emas, tarbiya vositasi. Tangri Yusufni maqom bilan mukofotlamoqda emas, iymon va sabrga sodiqligi tufayli uni xalqqa rahbar qilmoqda. Fikrlarni xulosa qilsak, Rabg‘uziy uchun Yusuf qissasi — ruhiy poklik, sabr va nafs ustidan g‘alabaning timsoli. Yusufning sinovi:

Quduqda — yolg‘izlikka sabr;

Vasvasada — nefsga qarshi turish;


Tuhmatda — haqiqatga sodiqlik;

Qamoqda — nolimaslik;

Maqomda — kibr qilmaslikdir.

Hikoyat: Zulayho Yusufni zindonga tashlanganidan keyin, zindonga borib, zindonchiga aytar edi. Yusufni urgil, men faryodini eshitay. Faqat zindonchi Zulayho so‘zini suymay Yusufga yetkazdi. Zindonchi Zulayhodon qo‘rqib yerni qattiq urdi. Yusufga aytdi: sen bir un qil. Zindonchining shashti qaytmasin deb, faryod qildi. Zulayho Yusufni sevar ekan tayoqlatmoqdan maqsad ne edi? O‘zini ko‘rmasamda, ovozini eshitib, ko‘nglim tinchlansin, suyuqlikning ohi ham suyuqlik dermishlar.

Qiyomat kuni mo‘min qullarga jahannamni ko‘rgazgaylar, mo‘min qullar Olloh taoloning do‘stidir. Ular ham jahannam azobidagilarni ko‘rib oh tortib yig‘laydilar. Gunohkor



bandalarimning gunohlarini eslab, mendan qo‘rqib ingrashi rostgo‘y bandalarning baqirib qilgan duosidan menga mahbubroqdir. Soqiy yana zindonga keldi. Zulayhoning so‘zini Yusufga aytdi. Yusuf sevindi. Aytdi: Maqsadim Aziz Misr bilsin-ki, u yo‘qligida unga xiyonat qilmadim. Shuni ham bilib qo‘ysin-ki, Olloh xoinlarning makrlariga yo‘l bermaydi. Abdulloh ibn Abbos aytadilarki, Yusuf bu so‘zni aytib bo‘ldi esa, Jabroil qanoti bilan Yusufni bir urdi, aytdi: “Zulayhoni urgali shaylanmadingmi, tabiati yengilligidan mayl bildirmadingmi?” Yusuf dedi: “Men o‘z nafsimni tiyarman. Chunki, nafs yovuz ishga boshlagay, chunki, nafs yetmishta shaytondan ham yomonroqdir”. Odamiyning nafsi qilgan ishni yetmish shayton qilmas

Tavvaka nafsuka la ta‘manu gava-ilaha

Fa an – nafs axbasu min sab’-ina shaytonan

Aytishlaricha, soqiy chiqib ketgandan keyin Yusuf yetti yil zindonda qoldi. Uch ish birla mashg‘ul bo‘ldi: duo o‘qidi, Haj ziyoratidan umid qildi, yana sabr qildi.

Alloh taolo ko‘ngliga soldi. Rayyon malik Yusufga odam jo‘natdi. “Uni huzurimga keltiring. O‘zimning xos kishilarimdan qilib olay”. Yusufga toza to‘nlar kiydirdilar, yuvindi. Zindon ahli yig‘lashdi. “Ey, Yusuf uzoq yillar zindonni yoritding. Sensiz endi biz nima qilamiz? Yusuf elchiga aytdi: Men zindon ahliga o‘rgandim, ularning bag‘ri ezilgan, yoshlari to‘kilgan holda tashlab ketolmayman. Malikka aytgil ularni menga bag‘ishlasin, ozod qilsin, yo‘qsa meni ular bilan qoldirsin”. Elchi malikka yetkazdi. Barini ozod qilib, to‘nlar kiygizdi.

Bashorat: Yusuf sharofati bilan Rayyon malik zindondagilarni ozod qildi. Dunyoning maligi Muhammad Mustafo (s.a.v) shafaoti bilan mo‘minlarni do‘zaxdan ozod qilsa hech ajabmas. Yusuf barcha zindon ahli bilan birga chiqdi. Ko‘rdi-ki yetti taxtiravon turibdi. Bari zar — ipaklar bilan o‘ralgan. U zaminda podshoh kimni kechirsa, podshoh taxti ravonga mindiradi. Yusufni oltin taxtga o‘tqazdilar. U qog‘oz va qalam so‘radi. Xat yozdi va zindon eshigiga yopishtirdi. Yozgani bu edi: “Bu zindon tiriklarning go‘ri, do‘stlarning turar joyi va dushmanlarning xursandchilik ta‘nasi”. Misr xalqi bir-biriga derdi: “O‘n ikki yil burun oyog‘iga kishan urib zindonga eltdilar, bugun oltin taxtga mindirib, izzat- ikrom bilan saroyga qaytarurlar. Ey, xudoyim bu xo‘rlik va yengillik berishing sababi na edi?” Yusuf aytdi: “Ey, Xudo, Sen kimni xohlasang aziz qilasan va kimni xoxlasang xor qilasan. Men Uning hukmiga roziman”. Yusufga malik yonidan joy berdi. Malik Yusufga yetmish tilda so‘z so‘zladi, u yetmish tilda javob berdi. Suhbat tugagach, Yusuf ibroniy tilda duo o‘qidi. Uni malik tushunmadi?

– Bu qaysi til, – deb so‘radi.

Yusuf aytdi: “Bu mening otalarim Ibrohim, Is‘hoq va Yoqub alayhissalom tillaridir. Malik yonidan ketayotganda ibriy tilda yana ezgulik tiladi. Malik uni tushinmadi. Va so‘radi.


Yusuf dedi: “Bu til otamning qarindoshi Ismoil tilidir?”

Malik tingladi va dedi: “Vazirlikni senga berayin”.

Yusuf aytdi: “Vazirlik Azizi Misrning lavozimi, men undan qarzdorman. U hayot ekan vazirlikni olmasman”.

Malik aytdi: “Barcha podshohlik ixtiyoringda xohlagan vazifangni tanla”.

Yusuf aytdi: “Menga o‘zga o‘rin kerakmas. Meni mamlakatdagi xazinalar ustidan nozir etib qo‘y, haqiqatda men bu ishni yaxshi muhofaza qilaman, yaxshi bilaman”. U ishni Yusufga topshirdi va aytdi: “Ey, Yusuf, mening mulkimda ne ish qilsang qilg‘il, faqat ikki ish qilmag‘il. Biri uyimda xotinlarim, cho‘rilarim bilan so‘zlashmagil”. Yusuf aytdi: “Bu ish bizning shariatimizda ravo emas, maning ul ishga rizom yo‘q”. “Ikkinchisi ulkim, sen bilan osh yemak or turur”, – dedi malik. Bu so‘zga Yusufning ham izzat-nafsi og‘ridi: “Menga ham




sen bilan osh yemak or turur”, – javob qildi Yusuf. Malik so‘radi: Na uchun: Yusuf javob qildi: “Men Yoqub yalovoch o‘g‘liman, Is‘hoq yalavoch nabirasiman, Ibrohim yalavoch urug‘iman, sening bilan netak osh yeyurman?” Malik Yusufga go‘zal saroylar hozirladi. Yusuf dehqonchilik boshladi, juda ko‘p ekin ektirdi. Hosil yetilganda, zaruratini qoldirib, boshqasini ulkan-ulkan omborlar qurdirib, hosilni yig‘di. Aytishlaricha, u zamonda sulton xalqning yarim hosilini olardi. Yusufga barcha ixtiyor berilgach, xalqqa yon bosdi. Mamlakatda to‘kin-sochinlik bo‘ldi.⁵ Xulosa qiladigan bo‘lsak, Xulosa (Yusuf alayhissalom – sinov timsoli sifatida): Yusuf alayhissalom hayoti sinov va sabr, fidoyilik va poklik bilan to‘la. Bu matnda Yusuf alayhissalomning hayoti bir necha og‘ir sinovlar orqali bosqichma-bosqich yuksalganini ko‘ramiz. Avvaliga u birodarlari tomonidan quduqqa tashlanadi, so‘ngra Misrga qul sifatida olib ketiladi, keyin Zulayho tuhmatiga uchrab zindonga tashlanadi. Bu og‘ir holatlarda u na shikoyat qiladi, na sabrini yo‘qotadi. Aksincha, u Yaratganga suyanib, duo bilan qalbini pok saqlaydi, o‘z nafsini tiyadi, sabrni yonidan qo‘ymaydi. Zindonda ham u ma‘yus bo‘lmaydi, balki duo qiladi, tush ta‘bir qiladi, hamma unga hurmat qiladi. Hatto zindon ahli uni sog‘inadi. Yusuf o‘zini poklab chiqmaguncha ozodlikni istamaydi, chunki u poklikning, shon-sharafning asosini sabr va toqatda ko‘radi. Rayyon malik oldida ham Yusuf shoshqaloqlik qilmaydi. Vazirlikni darrov qabul qilmay, avvalo halollikni ustun qo‘yadi. U avval unga yaxshilik qilgan Azizi Misrga bo‘lgan hurmatini, vafodorligini namoyish etadi. Bunga qadar Zulayhoning iqrar bo‘lishi, ayollarning e‘tirofi Yusufning haqiqatdan ham begunoh, pok, Allohga sadoqatli banda ekanini tasdiqlaydi. Yusuf o‘zini ko‘r-ko‘rona oqlamaydi, balki voqealarning haqiqiy yuzasini sabr bilan kutadi. Buning natijasida u nafaqat etadi.

Ayyub (a.s.) – sabrning komil timsoli sifatida: “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Ayyub (a.s.) qissasi sabrning eng komil, sof va chuqur ifodasi sifatida keltiriladi. Ayyub avval boy, sog‘lom, obro‘li va murodiga yetgan payg‘ambar bo‘lgan. Alloh unga mol-mulk, farzand, sog‘lik va hurmat ato etgan. Biroq Tangri uni sinashni xohlab, undan barcha ne‘matlarini birin-ketin olib qo‘yadi. Ayyubning mol-dunyosi yo‘qoladi, bolalari vafot etadi, tanasiga og‘ir kasallik tushadi, do‘stlari va qarindoshlari undan yuz o‘giradi. Tanasida chirigan yaralar paydo bo‘ladi, u yolg‘izlikda yashashga majbur bo‘ladi. Shunday sinovlarga qaramay, Ayyub biror marta ham norozilik bildirmaydi. U Allohdan nolimaydi, duosida ham o‘zini oqlamaydi. Aksincha, dardni sabr bilan qarshi oladi. Asarda bu holat quyidagicha ifodalanadi: “*Ayyub sabr ayladi, joniga aza yetdi, moli ketdi, joni qiynaldi, ammo Tangridan nolimadi. Sabr sababi ila najot topdi.*”⁶ Ayyubning sabri faqat chidash emas, balki chin dildan rozi bo‘lish, sinovning ilohiy maqsadini anglashga intilish sifatida talqin qilinadi. Hatto rafiqasi unga: “Allohdan dardni ketkazishni so‘ra,” deganida, Ayyub unga quyidagicha javob beradi: “*Men yillar ne‘matda yashadim, endi oz muddat dardga sabr aylamasmanmi?*” Bu so‘zlar sabrning yuqori darajasini – rozi bo‘lish, norozilik qilmaslik, iloji bo‘lsa ham nolimaslik darajasini ko‘rsatadi. Bu sababdan ham muallif Ayyubni “sabr sababi ila Tangri roziligiga yetgan bandasi” deb ataydi. Ayyub uzoq yillik sabridan so‘ng, Tangriga duo qiladi. U Allohdan dard emas, faqat Yaratganning roziligini so‘raydi. Shunda Alloh uni kasalligidan forig‘ qiladi, unga avvalgidan ham ko‘proq mol-mulk

⁵ Toshkent. “Yozuvchi” nashriyoti tomonidan 1990 yilda chop etilgan, 240 sahifa .

⁶ . Qissasi Rabg‘uziy, Fan, 1990.




va farzand ato etadi. Asarda shunday deyiladi: *“Tangri Ayyub sabriga rozi bo’ldi, unga ikki barobar ne’mat qaytardi.”* Ayyub qissasi orqali Rabg’uziy sabrni chidash emas, balki ma’naviy yuksalish, axloqiy sobitlik va Yaratganga sodiqlik darajasi sifatida talqin qiladi. U sabrni kuch emas, yurakdagi e’tiqod sifatida ko’rsatadi. Ayyub (a.s.) faqat sabr qilgani uchun emas, sabr qilgan holatda ham Allohga to’liq ishonch bildirgani uchun najot topadi. Demak, *“Qissasi Rabg’uziy”* asarida sabrning eng yorqin timsoli aynan Ayyub (a.s.) bo’lib, u sinovlarga rozi bo’lishi, nolimasligi va oxir-oqibat najot topishi bilan insoniyat uchun sabrning eng oliy darajasini namoyon etadi.

“Qissasi Rabg’uziy” asarida najot ramziga eng to’g’ri mos tushadigan payg’ambar — Yunus (a.s.) deb qaraladi. Sababi, u nafaqat jismoniy halokat yoqasida turadi, balki ruhiy inqiroz, tavba, chin ko’ngildan kechirim so’rash va oxirida najot topish bosqichlaridan o’tadi. **Yunus (a.s.)⁷ – tavba orqali kelgan najot timsoli.** *“Qissasi Rabg’uziy”* asarida Yunus (a.s.) qissasi najotning ramziy va ruhiy ma’nodagi eng to’liq namunasi sifatida bayon etiladi. Yunus o’z xalqini iymonga chaqiradi. Ammo uning qavmi iymon keltirmaydi. Yunus ulardan ranjib, Allohning iznisiz qavmini tark etadi. Bu esa payg’ambarlik mas’uliyatidan qochish deb qabul qilinadi va u Tangrining sinoviga duchor bo’ladi. Yunus kema orqali boshqa tomonga ketadi, lekin dengizda bo’ron ko’tariladi. Kema ahlining fikricha, bu ofat kimdandir sababli bo’layapti, qur’a tashlanadi va Yunusga tushadi. Natijada, uni dengizga tashlashadi. U baliq yutib yuboradi va zulmatda — dengiz tubida, baliq qornida, mutlaqo yolg’iz qoladi. Bu yerda Rabg’uziy inson hayotidagi eng og’ir, hech kimdan yordam bo’lmaydigan va faqat Yaratganga yuzlaniladigan holatni ramziy tarzda tasvirlaydi. *“Yunusni baliq yutdi, zulmat ichra Tangrini esladi, dedi: Ey Tangrim, men o’zim zolim edim.”* Bu ibora muhim: Yunus o’z aybini tan oladi, shikoyat qilmaydi, norozilik bildirmaydi. U faqat xatoni anglab, tavba qiladi. Bu — najotga eltuvchi asosiy kalitdir. Rabg’uziy ushbu qissani qisqa, ammo nihoyatda mazmunli tarzda yozadi. Unga ko’ra, Yunusning najoti — faqatgina tavbaning samimiyligi bilan kelgan. Alloh uning chin dildan qilgan duosini qabul qiladi: *“Tangri unga rahm qildi, baliq og’zini ochdi, Yunus quruqqa chiqdi, najot topdi.”* Bu yerda *“najot”* nafaqat jismoniy — baliq qornidan chiqish, balki ruhiy najot, ya’ni xatoni tushunish, ilohiy vazifani tan olish, Allohga qaytish deb talqin qilinadi. Shu sababli Yunus qissasi odamzodning eng og’ir holatda ham najot topa olishini isbotlaydi. Rabg’uziy bu qissani o’quvchiga chuqur saboq sifatida taqdim etadi: eng quyi holatda ham inson najot topishi mumkin, agar u samimiy tavba qila olsa. *“Najot topur tavba qilgan, Tangrining eshigini ochgan.”* Yunus (a.s.) — *“Qissasi Rabg’uziy”*da najot ramzining eng yorqin namunasi. Uning qissasi o’quvchiga shuni anglatadi: najot – kuch bilan emas, samimiyat bilan keladi. Baliq qornidagi zulmatdan chiqqan payg’ambar aslida qalbining zulmatidan chiqqan inson sifatida tasvirlanadi. Demak, Yunus qissasi – bu najotning sabr emas, tavba orqali keladigan yo’lini ko’rsatadi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, *“Qissasi Rabg’uziy”* — bu nafaqat diniy-madaniy meros, balki insonga ruhiy saboq, iymoniy kompas bo’la oladigan ulug’ manbadir. Asarda bayon etilgan har bir payg’ambar qissasi zahirida insoniyatga xos eng yuksak tushunchalar — sabr, sinov va najot haqida chuqur badiiy-falsafiy g’oyalar mujassam. Bu asarda sabr – shunchaki chidash emas, balki Allohga to’liq tavakkal qilish va rozilik bilan sinovlarni kutib olishdir. Ayyub (a.s.) misolida sabrning komil timsoli ko’rsatiladi: tan azobda, ruh iztirobda, ammo til shikoyatsiz. U og’riq bilan yashaydi, ammo iymonini yo’qotmaydi. Bu sabr — halovatli sukutdir. Najot esa – tashqi holatning o’zgarishi emas, ichki yengillik, Yaratganga yuz burishdir. Yunus (a.s.) qissasida bu aniq aks etadi: eng zulmatda, eng yolg’iz paytda, inson o’zini anglaydi, gunohini tan oladi va aynan shu tan olish uni najotga olib keladi. Demak, najotga eltuvchi yo’l — chin qalbdan qilingan tavba, samimiyat va o’z aybini tan olishdir. Yusuf (a.s.) esa sabr va iffatni

⁷ (Qissasi Rabg’uziy. – Fan, 1990)



birlashtirgan timsol sifatida tasvirlanadi. U fitna, yolgʻon va tuhmat oldida oriyatini saqlagan, sinovlardan oʻzini yoʻqotmasdan oʻtgan, eng ogʻir holatda ham axloqdan ogʻmagan. Shu sababdan uning najoti ham maʼnaviy yuksalish bilan ifodalanadi. Asarning har bir qissasi oʻzbek oʻquvchisiga tanish ruhda, xalqona, soddaligi bilan taʼsirchan. Rabgʻuziy tilni ogʻirlashtirmasdan, chuqur mazmunni xalq fahmiga yaqin shaklda ifodalay olgan. U diniy matnni quruq pand emas, balki ruhiy safarga aylantirgan. Maqolamiz davomida koʻrindiki: “Qissasi Rabgʻuziy” asari biror davr uchun emas, har qanday zamon va har qanday holatdagi inson qalbi uchun oʻz yoʻlini topa oladigan asardir. Chunki sinov har doim boʻladi, sabr har kimga kerak, najotni esa har yurak kutadi. Ushbu asar bizga oʻrgatadi: sabrli boʻl, tavba qil va chin dildan istagin — najot senga albatta keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Qisasi Rabgʻuziy“, *Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasR-harfi*). Toshkent: „Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.i (
2. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi N. Shodmonov, Gʻ. Shodmonov/darslik –Qarshi, «Nasaf NMIU» – 2022. 380 bet.
3. Rabgʻuziy, Nosiruddin Burxonuddin. *Qisasi Rabgʻuziy*, (birinchi kitob). Toshkent: „Yozuvchi“ nashriyoti, 1990 — 240-bet.
4. Rabgʻuziy, Nosiruddin Burxonuddin. *Qisasi Rabgʻuziy*, (ikkinchi kitob). Toshkent: „Yozuvchi“ nashriyoti, 1991 — 240-bet.

Veb-sayt:

https://uz.wikipedia.org/wiki/Qisasi_Rabg%CA%BBuziy